

# Traktorlar, qishloq xo'jaligi va melioratsiya mashinalarining gidravlik va elektrik tizimlarini o'qitish uchun dasturiy mahsulot xarid qilish bo'yicha konkurs

## Traktorlar, qishloq xo'jaligi va melioratsiya mashinalarining gidravlik va elektrik tizimlarini o'qitish uchun dasturiy mahsulot xarid qilish bo'yicha konkurs

**Tashkilot/Institut/Kompaniya:** Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti (TIQXMMI)

**Loyiha nomi:** Xorijiy universitetlardagi innovatsion yechimlarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligida muhandis kadrlarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirish

**Loyiha ID:** AIF 2/16

### TRAKTORLAR, QISHLOQ XO'JALIGI VA MELIORATSIYA MASHINALARINING GIDRAVLIK VA ELEKTRIK TIZIMLARINI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN DASTURIY MAHSULOT YETKAZIB BERISH

TIQXMMI Jahon bankining O'zbekiston Respublikasida Oliy talimni modernizatsiya qilish loyihasi doirasida Akademik innovatsiyalar fondining "Xorijiy universitetlardagi innovatsion yechimlarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligida muhandis kadrlarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirish" loyihasini amalga oshirmoqda va loyiha mablag'larining malum bir qismi talim jarayonida foydalaniladigan dasturiy mahsulot va elektron resurslar xarid qilish uchun sarflanishi rejalashtirilgan.

TIQXMMI vakolatli tashkilotlar/kompaniyalarni quyidagi dasturiy mahsulotni yetkazib berish bo'yicha konkursda qatnashish uchun qiziqishlarini bildirishga taklif qiladi:

Nomi	Vazifasi, imkoniyatlari
Traktorlar, qishloq xo'jaligi va melioratsiya mashinalari gidravlik va elektrik tizimlarini o'qitishda foydalaniladigan dastur	Dastur talim berish uchun mo'ljallangan va undan "Traktorlar va transport vositalari", "Qishloq xo'jaligi va melioratsiya mashinalari", "Traktorlar va melioratsiya mashinalari gidravlik tizimlari" kurslarida laboratoriya amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda foydalaniladi (darslar 10-12 talabadan iborat kichik guruhlarda o'tkaziladi). Dastur yordamida gidravlik va elektrik tizimlarni vertual sxemalini qurish va ular ishini o'lchov vositalari (multimetr, ossilograf, gidravlik tester, termometr va boshqalar)dan foydalanib simulyatsiya qilish / modellashtirish mumkin; ekspluatatsiya jarayonida paydo bo'ladigan nosozliklarni bartaraf qilish ko'nikmalarini hosil qilish uchun vertual tizimda muammoli holatlar yuzaga keltirish va ularni faollashtirish imkoniyati mavjud.

Tovarlarni xarid qilish Jahon banki Qo'llanmalari: XTTB kreditlari va Jahon banki qarzdorlari tomonidan XTA kreditlari va grantlari bo'yicha tovarlar, ishlar va nomoddiy xizmatlar xarid qilish (2011 yil yanvarda qabul qilingan), 2014 yil iyul oyida qayta ko'rib chiqilgan (Xaridlar bo'yicha qo'llanma) qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi va konkursda vakolatli mamlakatlarning har qanday ishtirokchilari ishtirok etishi mumkin.

Qiziqish bildiradigan tashkilotlar / kompaniyalar quyida keltirilgan elektron pochta orqali qo'shimcha malumotlar (dasturiy mahsulotga talablar (spetsifikatsiya), dasturni yetkazib berish shartlari va boshqalar) olishi mumkin. Takliflarni shakllantirish va yetkazib berish muddati 2021 yil 23 aprelgacha, 14 kun.

Tijorat takliflari taklif berilgan kundan boshlab 90 kun davomida amal qilishi kerak. Konkursda

qatnashadigan xorijiy ishtirokchilar dasturni Toshkentga yetkazib berish xarajatlarini ham etiborga olishlari kerak.

**Manzil:** K.Niyazov ko'chasi 39, Toshkent, 100000 O'zbekiston

**Telefon:** +998 71 237 2534

**Elektron pochta:** [aif-agr-eng@tiame.uz](mailto:aif-agr-eng@tiame.uz)